

**SUT BEZI SARATONI LOKOREGIONAR RETSIDIVIDA KOMPLEKS
DAVOLASHNING AHAMIYATI****Zaripova Parvina***RIO va RIATM Samarqand filiali*

Annotatsiya. Sut bezi saratoni dunyo bo'yicha ayollar orasida eng ko'p uchraydigan xavfli o'smalardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda diagnostika va davolash usullarining rivojlanishiga qaramay, ayrim bemorlarda lokoregionar retsidiv rivojlanishi kuzatilmoqda. Lokoregionar retsidiv kasallikning operatsiya qilingan sohada, ko'krak devorida yoki mintaqaviy limfa tugunlarida qayta namoyon bo'lishi bilan tavsiflanadi va uzoq muddatli davolash natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Lokoregionar retsidivni davolashda bemorning yoshi, o'smaning molekulyar-biologik turi, avvalgi davolash usullari hamda umumiy somatik holati hisobga olinishi lozim. Jarrohlik davolash imkon qadar radikal tarzda bajariladi, undan so'ng ko'rsatmalarga ko'ra nur terapiyasi, kimyoterapiya, gormonterapiya yoki HER2-musbat o'smalarda maqsadli (target) terapiya qo'llaniladi. So'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, multimodal davolash yondashuvi mahalliy nazoratni yaxshilaydi, uzoq muddatli remissiya ehtimolini oshiradi va umumiy yashash ko'rsatkichlarini yaxshilashga yordam beradi.

Shuningdek, davolashdan keyingi muntazam dispanser kuzatuvini lokoregionar retsidivni erta aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Klinik ko'rik, instrumental tekshiruvlar va laborator monitoring kasallik qaytalanishini o'z vaqtida aniqlash imkonini beradi.

Xulosa.

Sut bezi saratoni lokoregionar retsidivini samarali davolash multidissiplinar yondashuvni talab qiladi. Individual davolash rejasini ishlab chiqish, zamonaviy diagnostika usullaridan foydalanish hamda kompleks terapiyani qo'llash bemorlarning hayot sifati va uzoq muddatli prognozini yaxshilashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: sut bezi saratoni, lokoregionar retsidiv, kompleks davolash, jarrohlik, nur terapiyasi, kimyoterapiya, gormonterapiya, maqsadli terapiya, prognoz.